

CHET TILLARNI O‘QITISH BO‘YICHA MAMLAKATIMIZDA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHOTLAR VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH



<https://doi.org/10.5281/zenodo.6653408>

Farida Hamroyeva

Samarqand davlat chet tillar instituti
Yaqin sharq tillari kafedrası o‘qituvchisi (O‘zbekiston)

O‘sarova Dilfuza

Samarqand davlat chet tillar instituti
Koreys tili yo‘nalishi 1-kurs talabaisi (O‘zbekiston)

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Respublikamizda chet tillarini o‘qitishni tubdan isloh qilish to‘g‘risidagi qarorlar, prezident farmonlari xususida fikr yuritiladi. Jumladan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-SON qaroriga muvofiq shuningdek xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlarni samarali amalga oshirish borasidagi islohotlar kengroq tahlil qilinadi

Kalit so‘zlar: *Innovatsion texnologiyalar, metod, kompleks tizim, lingafon kabinetlari, o‘yin, intensiv.*

ABSTRACT

This article discusses the decisions on radical reform of foreign language teaching in the country, presidential decrees. In particular, the President of the Republic of Uzbekistan In accordance with the Resolution PQ-5117-SON of May 19, 2021 on the activities of the Ministry of Education and Science of the Republic of Uzbekistan

Keywords: *Innovative technologies, methods, complex systems, language cabinets, games, intensive/*

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются решения по коренной реформе преподавания иностранных языков в стране, указы Президента В частности Президента Республики Узбекистан В соответствии с Постановлением PQ-

5117-СОИ от 19 мая 2021 года о деятельности Министерство образования и науки Республики Узбекистан

Ключевые слова: Инновационные технологии, методики, комплексные системы, языковые кабинеты, игры, интенсивы

KIRISH

“Xorijiy tillarni o‘rgatish bo‘yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo‘ladigan yangi tizimni yo‘lga qo‘yish vaqt-soati keldi.” - deydi o‘zlarining ma‘ruzalarida hurmatli prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev. O‘zbekistonning har bir yetishib kelayotgan yosh avlod hech kimdan kam bo‘lmagan, dunyo ta‘lim standartlari darajasiga to‘liq javob bera oladigan yetuk bilimli-ilmli bo‘lishi shart va bunga jon-jahdimiz bilan kirishishimiz kerak. Bugungi kunga kelib chet tillari ayniqsa, ingliz tilini o‘rganishga bo‘lgan talab va qiziqish shunchalik kuchaydiki bog‘cha yoshidagi bolalardan boshlab katta yoshdagi mutaxassislargacha ingliztilini o‘rganishga harakat qilyaptilar. Bu ijobiy holat albatta, chunki, til o‘rganish o‘sha tilda gaplashuvchi davlatlar madaniyati, tarixi va gaplashuvchi davlatlar madaniyati, tarixi va urf odatlarini o‘rganish bilan birga shaxsiy manfaatlari yo‘lida ham eshiklar ochilishiga zamin yaratadi . Qayd etib o‘tilgandek mamlakatimizda O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim To‘g‘risida”gi qonunini hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish doirasida chet tillariga o‘qitishning kompleks tizimi, ya‘ni uyg‘un kamol topgan o‘qimishli, zamonaviy fikrlovchi yosh avlodni shakllantirishga, respublikasining jahon hamjamiyatiga yanada yo‘naltirilgan tizim yaratildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA NATIJALAR

Chet tilini o‘qitishda zamonaviy texnologialardan foydalanish samaradorlikning oshishiga yordam bera oladi. Misol uchun mashg‘ulot davomida chet tildagi video rolikni ko‘rish orqali o‘rganuvchining eshitish ko‘nikmasi yetarli darajada rivojlanadi. Ba‘zi bir hollarda esa videolar uchun berilgan izohlar ularning yozish, o‘qish va hattoki gapirish ko‘nikmalarini o‘stirishida ham yetarlicha o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Shunday hollarda biz kompyuter, magnitafon, proyektor, CD disklar va kassetalardan foydanishimiz mumkin.

Bundan tashqari dars davomida zamonaviy metodlar ham talaba-o‘quvchilarning chet tilini o‘rganishda ancha yengilliklar yaratadi. Shu o‘rinda “klaster”, “baliq skeleti”, “venn diagrammasi”, “rolli o‘yinlar”, “aqliy hujum”, “savol-javob” kabi metodlarni aytib o‘tishimiz lozim. Har bir metodning qo‘llanilishida alohida talaba-o‘quvchilar uchun chet tilini osonroq o‘rganishda yengillik yaratib beruvchi omillari mavjud. Masalan, aqliy hujum metodini olsak, bu

metod talabani tezroq fikrlashiga va nutqini o‘stirishga juda ham katta ijobiy ta’sir ko‘rsatadi va bir birlari bilan fikr almashish orqali ham dunyoqarashi, fikrlash qobiliyati rivojlanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Mustaqillik yillarida 51,7 ming nafardan ziyod chet tillar o‘qituvchilari tayyorlandi umum ta’lim maktablarining 5-9-sinflari uchun ingliz, nemis va fransuz tillari bo‘yicha multimedia darsliklari, boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o‘rganish bo‘yicha elektron resurslar tayyorlandi. Umum ta’lim maktablarida, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda 5-mingdan ko‘proq lingafon kabinetlari jihozlandi. Shu bilan birga, chet tillarni jihozlandi. Shu bilan birga, chet tillarni o‘rganishni tashkil qilishning amaldagi tizimini tahlil etish shuni ko‘rsatmoqdaki ta’lim standartlari o‘quv dasturlari va darsliklar zamon talablariga, xususan, ilg‘or axborot va media-texnologiyalardan foydalanish borasidagi talabga to‘liq javob bermayapti. Ta’lim asosan an’anaviy uslublarda olib borilmoqda. Ta’lim tizimining barcha bosqichlarida chet tillarni uzluksiz o‘rganishni tashkil qilish shuningdek, o‘qituvchilar malakasini oshirish hamda zamonaviy o‘quv-uslubiy materiallar bilan taminlash yanada takomillashtirishni taqozo etadi. Zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o‘qitishning ilg‘or uslublarini joriy etish yo‘li bilan, o‘zib kelayotgan yosh avlodni chet tillariga o‘qitish shu tillarda erkin so‘zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish hamda buning negizida, ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko‘lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish maqsadida 2013/2014 o‘quv yilidan boshlab respublikaning barcha hududlarda chet tillarni, asosan ingliz tilini o‘rganish umum ta’lim maktablarining birinchi sinflaridan o‘yin tarzidagi darslar va og‘zaki nutq darslari shaklida ikkinchi sinfdan boshlab esa alifbo, o‘qish va grammatikani o‘zlashtirishdan boshlanadi. Mamlakatimizda har yili ilm-fanning bir necha yo‘nalishi tanlab olinib, alohida e’tibor bilan rivojlantirilmoqda. Bu yil fizika va chet tillari ana shunday ustuvor sohalar etib belgilandi. O‘zbekistonning ochiqlik siyosati, turizmni rivojlantirish, dunyo bozoriga shahdam qadam-la faol kirib borishi, barcha sohalarda hamkorlik kengayayotgani xorijiy tillarni o‘rganishga katta ehtiyoj tug‘diradi. Hozirda yurtimizda 25 ta oliy ta’lim tug‘diradi. Hozirda yurtimizda 25 ta oliy ta’lim dargohida chet tillarini o‘qitish joriy qilindi. 2016-yilda atigi 7 ta edi. Xalqaro til sertifikatini olgan bitiruvchi o‘quvchilar soni oxirgi 3 yilda 10 baravarga oshdi. Joriy yilda “El-yurt umidi” jamg‘armasi orqali 350 nafar talabani nufuzli xorijiy

universitetlarda o’qishi uchun stipendiyalar ajratildi. Bu o’tgan yillarga nisbatan 5 barobar ko’pdir. Ta’lim tizimida 2 mingdan ortiq chet tili o’qituvchisi lavozimi vakant bo’lib qolyapti. 1 million 400 ta maktabda chet tilini o’qitish sifatini oshirish kerak. Bu sohada mutaxassis o’qituvchilarning 4 % milliy va xalqaro til sertifikatiga ega. Maktablardagi o’qituvchilarning 49 % testdan o’ta olmagan. Bir so’z bilan aytganda davlatimizda “bog’cha -maktab-oliy ta’lim-korxonalar zanjiri orqali aholining barcha qatlamlariga mos ravishda o’quv qo’llanmalari, audio-video va intensive” tarzda til o’rganishga moslashtirilgan qo’llanmalar ishlab chiqilmoqda. Toshkent davlat jahon tillari va sharqshunoslik tillari va sharqshunoslik universitetlari, Samarqand chet tillari instituti bilan bir qatorda, har bir viloyatda bittadan universitet chet tillari bo’yicha tayanch muassasa sifatida belgilandi. Bundan tashqari yuqori ball olgan o’qituvchilarga xalqaro sertifikat olish uchun test topshirish xarajatlari qoplab beriladi. Kelgusi yildan boshlab ishga qabul qilinayotgan chet tili o’qituvchilariga milliy va xalqaro sertifikatga ega bo’lish talabi kiritiladi. Keyingi 3 yilda 53 mingta chet tillari o’qituvchilariga milliy va xalqaro sertifikatga ega bo’lish talabi qo’yiladi. Yangi o’quv yilidan boshlab chet tillari bo’yicha qabul kvotalari soni 2 barobarga ko’paytirilib, 16 mingtaga yetkazilishi, davlat granti esa 3 baravarga oshirilishi tasdiqlandi. Shu bilan birga kelgusi yildan boshlab magistratura va doktoranturaga kiruvchilar uchun chet tili bo’yicha sertifikatga ega bo’lish talabi kiritiladi. Tabiiy va texnik fanlar bo’yicha xorijiy darslik va qo’llanmalardan foydalanish yo’lga qo’yildi.

“El- qo’llanmalardan foydalanish yo’lga qo’yildi. “El-yurt umidi” jamg’armasi orqali xorijiy doktoranturada ta’lim olish uchun yiliga 20 ta o’rin ajratiladi. Britaniya kengashi, Gyoti instituti, Fransuz alyansi, Koika, Jaika, Konfutsiy instituti kabi xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlikni yanada kuchaytirish, nodavlat o’quv markazini kengaytirish muhim vazifa etib belgilandi. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o’rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to’g’risida 2021-yil 19 - maydagi PQ-5117-SON qaroriga muvofiq shuningdek xorijiy tillarni o’rganishni ommalashtirish bo’yicha tashkiliy chora-tadbirlarni samarali amalga oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi. Davlat organlari va tashkilotlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va davlat ta’lim muassasalarining xorijiy tillarni o’qitishni ommalashtirish borasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi. Xorijiy mahalliy faoliyatini muvofiqlashtiradi. Xorijiy mahalliy hamkorlar bilan aloqalar o’rnatib, ularning moliyaviy, tashkiliy va uslubiy ko’magini mamlakatda xorijiy tillarni o’rganishni ommalashtirishga jalb qilishni tashkil etadi. XX asrda chet tillarini o’qitish metodi.

1. Grammatika-tarjima metodlari.
2. Bevosita ta'lim metodi.
3. Eshitish-gapirish metodi.
4. So'zlashuv-holat metodi.

Masalan: ingliz tilida gaplashish ya'ni “speaking” uchun 3 ta narsa kerak.

1.Gap tuzish formulalari. 2.Eng kerakli grammatika mavzulari. 3.Speaking savollari. Ingliz tilida gap tuzish: 1) simple 2)complex 3)compound 4)complex compound.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, chet tillarini o‘rganish uchun olib borilayotgan islohotlar va qulayliklar barchasi hozirgi yoshlarimiz uchun imkoniyatlar eshigini ochilishi deb bimalol aytishimiz mumkin. Bunday imkoniyatlardan to‘g‘ri va samarali foydalangan holda chet tillarini mukammal o‘rganib yurtimiz kelajagi, iqboli uchun o‘z hissamizni qo‘shishimiz va albatta hayotimizni yanada osonlashtirish uchun o‘z bilimimizga tayangan holda ixtiro, kashfiyotlar qilishimiz zarur . Va bizga yaratilayotgan imkoniyatlardan keng ko‘lamda foydalanib O‘zbekiston yoshlarini dunyoga tanitishimiz bizning maqsad va burchimizga aylanishi lozim. Zero, chet tilini o‘rganish - davr talabi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-maydagi PQ-5117-SON qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 29-avgustdagi 465-1-sonli "Ta'lim to‘g‘risida"gi qonunini.
3. Muminova, F .M .Ingliz tilini o‘qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish.
4. O‘.Hoshimov, I Yoqubov "Ingliz tili o‘qitish metodikasi"(o‘quv qo‘llanma) Toshkent "Sharq "nashriyoti 2003
5. New Fly High 5 (o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma). 2017
6. Джураев, Д. (2020). Талабаларни таълим жараёнида хитой тилига ўқитиш самарадорлигини ошириш методлари. Иностранная филология: язык, литература, образование, (1 (74)), 124-127.
7. Джураев, Д. (2021). ХИТОЙ ТИЛИНИ ЎҚИТИШДА ТАЛАБА ХАРАКТЕРИНИНГ АҲАМИЯТИ. АКТУАЛЬНОЕ В ФИЛОЛОГИИ, 1(1).
8. Джураев, Д. М. (2017, January). ИСТОРИЧЕСКИЕ ПРЕДПОСЫЛКИ ОБУЧЕНИЯ И МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА В УЗБЕКИСТАНЕ. In Актуальные вопросы преподавания китайского и других восточных языков в XXI в. (pp. 84-88).

9. Odil ogli, T. I. (2021, October). Qadimgi Xitoy Madaniyatining Shakllanishi. In "ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 137-139).
10. Tojiboev, I. O. U. (2021). CHINESE ARCHITECTURE. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(8), 40-42.
11. Odil o‘g‘li, T. I. The history of the origin of the Chinese language and the work done to date.
12. Тухтасинов, И. М. (2011). Лингвокультурологические и гендерные особенности сложных слов в художественном тексте (на материале английского и узбекского языков). Автореф. дисс.... канд. филол. наук. Ташкент: УзГУМЯ.
13. Тухтасинов, И., & Хакимов, М. (2021). Modern views on the problem of distance and traditional methods of teaching italian language in higher education institutions. Society and Innovation, 2(2), 111-117.
14. Tukhtasinov, I. M., Muminov, O. M., & Khamidov, A. A. (2017). The days gone by. Novel by Abdulla Qodiriy. Toshkent.
15. Tukhtasinov, I. M. (2018). The structure of the phenomenon of equivalence and its importance for translation strategies. In Modern Romano-German linguistics and new pedagogical technologies in language teaching, Materials of the Republican scientific-practical conference, Samarkand.
16. Тухтасинов, И. М. (2018). Развитие профессиональной компетенции на основе эквивалентности при подготовке переводчиков.
17. Tukhtasinov, I. M. (2017). Discursive approach in the training of translators. In Mat. International scientific and creative forum" Youth in science and culture of the XXI century". Chelyabinsk: Chelyabinsk State Institute of Culture (pp. 229-231).
18. Тухтасинов, И. М. (2012). Национально-культурная специфика сложных слов, выражающих внешность и характер человека, в английском и узбекском языках. Вестник Челябинского государственного университета, (2 (256)), 122-125.
19. Тухтасинов, И., & Хакимов, М. (2021). Современные взгляды на проблему дистанционного и традиционного методов обучения итальянскому языку в высших учебных заведениях. Общество и инновации, 2(2), 111-117.
20. Тухтасинов, И. М. (2017). Дискурсивный подход в обучении переводчиков. In Научные школы. Молодежь в науке и культуре XXI в. (pp. 229-231).
21. Тухтасинов, И. (2021). Таржимоннинг касбий компетенцияси ва фаолият функциялари. Иностранная филология: язык, литература, образование, (3 (80)), 5-10.

22. Тухтасинов, И. (2021). Особенности формирования учебного процесса в системе высшего образования Узбекистана в условиях Covid-19. *Иностранная филология: язык, литература, образование*, 1 (78), 11-18.
23. Тухтасинов, И. М. (2020). Лингвокультурологический аспект обучения переводческой компетенции. In *Язык и культура* (pp. 226-231).
24. Тухтасинов, И. М. (2020). Лингвокультурологический аспект обучения переводческой компетенции. In *Язык и культура* (pp. 226-231).
25. Tuhtasinov, Ihom and Lutfilloeva, Fahriniso, *The Japanese Language Teaching Technologies Based on Computer Simulation Models* (September 10, 2019). Available at SSRN: <https://ssrn.com/abstract=3458780>
26. Тухтасинов, И. М. (2019). ВНЕДРЕНИЕ ИННОВАЦИЙ В ПРОЦЕСС ОБУЧЕНИЯ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ ПЕРЕВОДА. In *Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития* (pp. 111-113).
27. Сукиасян, Г. А., Тухтасинов, И. М., Гушул, Ю. В., & Баштанар, И. М. (2019). Научные школы. Молодежь в науке и культуре XXI века: материалы междунар. науч.-творч. форума (научной конференции), 7–8 нояб. 2019 г./сост.: СБ Синецкий (отв. сост.).
28. Тухтасинов, И. М. (2018). Методика выявления эквивалентности слов разносистемных языков в процессе перевода. *Бюллетень науки и практики*, 4(7), 539-544.
29. Тухтасинов, И. (2017). Таржимада маданияй мослашиш ҳолатлари. *Иностранная филология: язык, литература, образование*, 2(2 (63)), 5-9.
30. Тухтасинов, И. (2017). Жамият тарихининг ҳозирги босқичида таржимонлар тайёрлашнинг асосий муаммолари. *Иностранная филология: язык, литература, образование*, 2(4 (65)), 20-24.
31. Тухтасинов, И. (2016). Таржима назариясида тиллараро эквивалентлик тушунчаси ва унинг тадқиқи. *Иностранная филология: язык, литература, образование*, 1(4), 26-30.
32. Тухтасинов, И. М. СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ СПЕЦИФИКА В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ. ББК 74.48 Р 76, 314.